

2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”



IJODIY PARVOZ

2026-yil may № 5 (144) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI –

ma'rifat va
taraqqiyotning
yangi uyg'onish
maskani



2026-yil 18-may kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari hamda talabalari Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdilar. Ushbu ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv nafaqat tarixiy meros bilan yaqindan tanishish, balki yoshlar qalbida milliy g'urur, ilm-fanga hurmat va ma'naviy qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Tashrifda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev hamda “Musiqa ta'limi: jahon miqyosida yagona maydon sari” xalqaro forumi doirasida mamlakatimizda mehmon bo'lib turgan Qirg'iziston Respublikasi Madaniyat, axborot va yoshlar siyosati vazirining birinchi o'rinbosari Soyuzbek Nadirbekov ham ishtirok etdi. Mehmonlar markazning boy ekspozitsiyalari, tarixiy maketlari, interaktiv ko'rgazmalari va ilmiy-ma'rifiy loyihalari bilan yaqindan tanishdilar.

Bugungi kunda Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekistonning nafaqat ilmiy va madaniy salohiyatini, balki jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini namoyon etuvchi noyob maskan sifatida e'tirof etilmoqda.

Markaz g'oyasi ilk bor 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u mamlakatimizning tarixiy ilm-fan markazi sifatidagi mavqeini tiklashga qaratilgan ulkan strategik tashabbus sifatida maydonga chiqdi. Mazkur markaz oddiy muzey emas. U ilm-fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiyalarni birlashtirgan xalqaro ilmiy-ma'rifiy platformadir. Bu yerda O'zbekiston hududida shakllangan islomiy tamaddun, buyuk allomalar merosi, qadimiy

qo'lyozmalar va tarixiy artefaktlar zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etiladi. Interaktiv laboratoriyalar, virtual ko'rgazmalar, gologrammalar, multimediya zonalar hamda sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar tashrif buyuruvchilar uchun tarixni “jonli” tarzda his qilish imkonini yaratmoqda.

Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatining asosiy maqsadi – islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, madaniyatlararo mu-

loqotni rivojlantirish hamda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Shu ma'noda ushbu markaz bugungi globallashuv davrida ma'naviy barqarorlik va ilmiy tafakkurni mustahkamlovchi muhim maskanga aylanmoqda.

Tashrif davomida talabalar Sharq uyg'onish davri allomalari, xususan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari buyuk ajdodlarimizning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi haqida keng ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Ayniqsa, markazdagi “Sivilizatsiyalar va kashfiyotlar devorlari”, “Vaqt kapsulalari” hamda ko'p tilli raqamli manbalar yoshlarda katta taassurot uyg'otdi.

Tashrifning ikkinchi qismida tarix fanlari doktori, professor Abduxalil Mavrulov tomonidan “Kelajak soati” darsi tashkil etildi. Unda Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati, xalqaro miqyosdagi ilmiy loyihalari hamda kelajak avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, “Mening portfoliom” mavzusida tashkil etilgan mashg'ulotda talabalar portfolio yuritish madaniyati, zamonaviy ta'limdagi o'rni, kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati haqida tushunchalarga ega bo'ldilar. Ularga mustaqil fikrlash, vaqtni to'g'ri boshqarish, yutuqlarni tizimli ravishda jamlash va shaxsiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha muhim tavsiyalar berildi.

Bugungi kunda markaz xalqaro miqyosda ham katta e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

2025-yilda u Yevropaning nufuzli Prix Avicenne mukofotiga loyiq deb topildi. Bundan tashqari, Smithsonian Magazine tomonidan 2026-yilda dunyoda eng katta qiziqish bilan kutilayotgan TOP-10 muzey loyihasi qatoriga kiritildi. BBC Travel nashri esa markazni 2026-yilda ochilishi eng ko'p kutilayotgan olti muzeydan biri sifatida e'tirof etdi. Shu bilan birga, markaz tomonidan xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. TURKSOY, UNESCO, ICESCO, Oxford Centre for Islamic Studies kabi nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarixiy xaritalar, ilmiy maqolalar va xalqaro tadqiqot loyihalari ustida ish olib borilmoqda. Bugungi kunga qadar Islom sivilizatsiyasi markazida uch mingga yaqin noyob artefakt jamlangan bo'lib, ularning aksariyati ilk bor xorijdan Vatanga qaytarilgan tarixiy yodgorliklardir. Bundan tashqari, hududdagi eng yirik kutubxonalardan biri tashkil etilgan bo'lib, unda 250 mingdan ortiq nashr jamlangan. Restavratsiya laboratoriyalarida xalqaro mutaxassislar va mahalliy olimlar tomonidan noyob qo'lyozmalarni saqlash va tiklash ishlari olib borilmoqda.

Aslida, Islom sivilizatsiyasi markazi – tarix va kelajakni bog'lovchi ulkan ma'rifat ko'prigidir. U yosh avlodni ajdodlar merosini chuqur anglashga, ilm-fanga intilishga, milliy o'zlikni qadrlashga undaydi. Ayniqsa, bunday ma'naviy-ma'rifiy tashriflar talabalar qalbida Vatanga muhabbat, tarixiy merosga hurmat va kelajak oldidagi mas'uliyat tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.

Bugun dunyo keskin o'zgarayotgan bir davrda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat xalqimizning boy tarixiy xotirasini saqlovchi maskan, balki yangi Uyg'onish davrining ilmiy va ma'naviy tayanchiga aylanmoqda.

MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,
“Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasidotsenti,
Xalq ijodiyoti fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari



Bugungi sonda:

Bir asarning
ming
ta'rifi



**XALQ
IJODIYOTI –
ILMIY VA IJODIY
FAKULTET**



**KITOB O'QIMAYDIGAN
AVLOD MUAMMOSI:
MAKTAB
KUTUBXONASI
YECHIM BO'LA
OLADIMI?**



**TARIXDAGI
ENG
BAXTSIZ
AVLOD**



**“Front
ortidagi
yosh
askarlar”**



Bir asarning ming taʼrifi

Ular Germaniyada oʻqigan edilar. Bu jumlaning koʻp marotaba eshitgan boʻlishingiz kerak. Sababi Yurtboshimizning tashabbuslari bilan qatagʻon qilingan jadedlar, maʼrifatparvarlar shu jumladan, ilm izlab chet elga oʻqishga ketgan 70 nafar jasoratli yurt farzandlarining nohaq oʻlimlari ortidagi achchiq haqiqatlar ochilib, ularning nomlari oqlangan. Ular nomiga filmlar, turli asarlar yaratilib, ruhlari shod etilmoqda.

Ular Germaniyada oʻqigan edilar nomi ham aynan 70 nafar talabalar haqida taʼrif edi. Abdurauf Fitrat va koʻplab ilm olish yoʻlida jon kuydirgan shaxslar hamda sovet hukumati koʻmagida 70 nafar bilim olishni istovchi yoshlar jalb qilinib Germaniyaga joʻnatiladi. Shifokor, pedagog, huquqshunos kabi kasblar kadrlari boʻlish ilinjida chet elga ketgan yurtdoshlarimiz chekkan qiyinchiliklari haqida Javlon Jovliyev oʻzining “Qoʻrqma” nomli asarida namoyon qilgan.

Mazkur asarning qahramoni olti oylikda ota-onasi yonib ketgandayoq birinchi hayot zarbasini tuydi. Uning taʼriflashicha, onasining iforini soʻnggi bor hidlaganda, undan faqat kul isi kelishini taʼkidlaydi. Bu juda taʼsirli ammo Javlon Jovliyev ona va farzand iztirobiga emas, aynan jamiyatga qarata norozilik ruhida jumlar keltirgan. Chaqaloq onasidan ajraladi, biroq yozuvchi qoʻshnilar va ich-ichidan achinmagan, yuzaki uvvos solib yigʻlovchi ikkiyuzlamachilarni nihoyada qoralaydi. Qahramon ulgʻayadi, bobosi koʻmagida oʻnta qoʻyning puliga

oʻqishga kiradi, ammo u buni suiisteʼmol qilishni istamaydi. Uning hayolida faqat Germaniyaga ketgan talabalarining orasida uni qiziqtirgan “Qizil askar” nomi bilan unga yetib kelgan shaxsning kimligi va nega uni sotqin deyishlari oʻziga tortishi hamda Mariyam Sultonmurodova va Xayriniso Majidxonova ismli qizlar haqida maʼlumotga ega boʻlamiz. Bu ikki talabaning ham taqdiri ayancli yakunlanadi. Mariyam haqida 2025-yilda tasvirga olingan “Matonatli Mariyam” nomli hujjatli filmdan bilib olsangiz boʻladi. Xayriniso tilidan aytilgan asardagi jumalalar insonning, ayol-qizlarning ruhini larzaga soladi, oʻylashga, harakat qilishga turtki beradi. Manqurt farzand tuqqan ona emas, bola tugʻib uni bilimli, jamiyatga foydali komil inson qilib tarbiyalagan ayol onadir.

Xayrinisoning oʻlimidan oldin undan zoʻravonlarcha zugʻum bilan otasining hayotini oʻrtaga qoʻyib aybdorligini, vatan xoini ekanligini tan oluvchi boʻhton hujjatlarga imzo olishadi va tanasiga shu on oʻq kelib tegadi. Boshqa tarafdin uning otasining jonsiz tanasidan ruhi

koʻtariladi va ota-bola uchrashishadi. Qiz monologi yakunida har tun, har ayolning tushiga bezovta ruh misoli kirib bora-man va ularning ruhini tinch qoʻymayman, zero ilmi onadan, ilmi farzandlar dunyoga kelsin deydi.

Bu jumlar qanchalar ogʻriqli boʻlmasin, barcha aytilgan soʻzlar toʻgʻri.

Asar muallifining taʼkidlashicha, koʻplab asar qahramonlari jigar saronidan vafot etishadi. Buning ham oʻziga yarasha ichki maʼnosi bor. Tanamizdagi jigar kasallansa bildirmaydi, eng oxirgi darajaga kelsa, oʻlim bilan tugaydi. Javlon Jovliyev esa jamiyatdagi kichik muammolarni, ogʻriqli nuqtalarni jigarga qiyoslagandek goʻyo. Zero, kichik muammolar bir kun kelib kattalashib, jamiyatni quritadi. Uning hikoya qilgan voqealarida bu jamiyatning oʻzgarishini kichik voqealarda koʻrishimiz mumkin. Darhaqiqat, tan olmagan farzandining aynan ishxonasida tashlandiq oʻlimi va buning qanchalar insoniy fazilatlariga toʻgʻri kelmasligi, shular jumlasidandir.

Bugungi kunda bilim olish uchun qoʻshimcha darslarga majburan boʻlsa ham bora-miz, sababi ota-onamiz unga toʻlov qilgan, ammo biz xohlamaymiz, xarajat qilingan va biz oʻqishga majburmiz. Javlon Jovliyev ana shu bilim olishni qadriga yetkazish uchun Germaniyalik talabalarga sovet hukumati pul ajratmagandan soʻng, ilmi, ziyoli kishilar tilanchilik qilishgani bizning koʻzimizga ham yosh keltirdi. “Iltilimos bizning kelajagimiz uchun, farzandlarimiz chet elda qiynalishyapti, biz uchun ilm olishlari kerak iltilimos sadaqa qilinglar”. Bu voqealar rostdan ham oʻmishda boʻlgan va biz hozirgi zamona-mizdagi sharoitlarni qadriga yetishimiz kerak ekanligi taʼkidlangan...



DURDONA TEMIRQULOVA,
“Sanʼat jurnalistikasi” taʼlim
yoʻnalishi 2-bosqich talabasi


Asar qahramoni avval ota-onasidan, soʻng bobo-buvisidan ajraladi. Oliygoʻhga kelib, hammadan nega oʻqishga kirgansan degan savolga qoniqarli javob ololmaydi. Germaniyaga ketgan talabalar orasidan “Qizil askar”ni ham topa olmaydi.

Eʼtirof etish joizki, aynan shu asarni taʼriflashga soʻz oʻqiz. Javlon Jovliyev koʻzlagan maqsadiga erishdi. Ushbu kitobni ham oʻqigan, ham uqqan kitobxon sifatida asarni oʻqigan vaqtimga achinmaganimdan bilib olsak boʻladi. Asar aynan hozirgi zamon uchun kerakli deb hisoblaymiz, achchiq haqiqatlarga yuz tutish vaqti keldi. Bu asar ming yaxshi taʼrifga arziydi.

IJOD VA TEXNOLOGIYA:

OʻZBEKISTONDA KONSERT VA TOMOSHA MUASSASALARI YANGI BOSQICHDA

Bugungi globallashuv davrida madaniyat sohasi ham jadal oʻzgarishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Texnologiyalar taraqqiyoti, raqamli platformalar, yangi ijodiy formatlar va tomoshabinlar didining oʻzgarishi konsert hamda tomosha muassasalarining faoliyatiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Oʻzbekistonda ham madaniyat sohasini modernizatsiya qilish jarayoni davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biriga aylangan.



Konsert va tomosha muassasalari jamiyatning madaniy hayotida alohida oʻrin tutadi. Ular nafaqat sanʼatni namoyish etish maydoni, balki ijodiy muloqot va estetik tarbiya maskani hamdir. Bunday muassasalar orqali insonlar musiqa, teatr, raqs va boshqa sanʼat turlari bilan yaqindan tanishadi, oʻz dunyoqarashini kengaytiradi.

Tarixdan maʼlumki, har bir jamiyatning madaniy rivojining sanʼat maskanlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Insoniyat tarixida madaniyat maskanlari doimo muhim oʻrin tutgan. Antik davrlarda amfiteatrlar, oʻrta asrlarda saroy konsert zallari, zamonaviy davrda esa filarmoniyalar va teatrlar jamiyatning madaniy hayotini shakllantirgan. Bugungi kunda esa bu maskanlarning vazifasi yanada kengaydi. Endilikda ular nafaqat madaniy hordiq chiqarish joyi, balki jamiyatda ijtimoiy muloqotni rivojlantiruvchi, ijodkorlarni qoʻllab-quvvatlovchi va madaniy diplomatiyani rivojlantiruvchi platforma sifatida ham qaralmoqda.

Madaniyat muassasalari davlatning xalqaro imidjini shakllantirishda ham muhim rol oʻynaydi. Xalqaro festivallar, konsert dasturlari va sanʼat loyihalari orqali mamlakat oʻz madaniyatini dunyoga namoyish etadi. Shu sababli konsert va tomosha muassasalari koʻplab mamlakatlarda strategik ahamiyatga ega soha sifatida rivojlantirilmoqda.

Soʻnggi yillarda raqamli texnologiyalar sanʼatni namoyish etish usullarini butunlay oʻzgartirib yubordi. Internet plat-

formalari, virtual konsertlar, onlayn translyatsiyalar va interaktiv texnologiyalar sanʼatni yangi auditoriyaga yetkazish imkonini yaratdi. Ayniqsa, pandemiya davri bu jarayonni tezlashtirdi. Koʻplab mamlakatlarda konsertlar va sanʼat tadbirlari onlayn formatda oʻtkazildi. Bu esa tomoshabinlar geografiyasini kengaytirib, madaniyatning global maydonda tarqalishiga xizmat qildi.

Bu jarayonda rivojlangan mamlakatlar tajribasini oʻrganish, uni milliy anʼana va qadriyatlar bilan uygʻunlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Janubiy Koreya va Fransiya kabi davlatlarning madaniy boshqaruv modellari konsert va tomosha muassasalarini rivojlantirishda muhim tajriba manbai boʻlib xizmat qilishi mumkin. Madaniyat industriyasini muvaffaqiyatli rivojlantirgan mamlakatlardan biri Janubiy Koreya hisoblanadi. Soʻnggi oʻn yillikda bu davlat global madaniyat makonida muhim oʻrin egalladi.

Janubiy Koreyada konsert va tomosha muassasalari faoliyatida raqamli texnologiyalar keng qoʻllaniladi. Masalan, birgina Lightstick sinxronizatsiyasi boshqa davlatlarda mavjud boʻlmagan Koreya konsert – tomosha muassasalarining oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. Chunki K pop konsertlarida muxlislar qoʻlida boʻlgan lightsticklar sahna va yorugʻlik tizimi bilan real vaqtda sinxron ishlaydi. Masalan, har bir fan-klub uchun rang va naqsh maxsus tayyorlanadi. Bu dunyoda yagona texnologiya hisoblanadi. Shuningdek,

XAYRIDDINOVA ASAL,
“Madaniyat va sanʼat menejmenti”
mutaxassisligi 1-bosqich
magistranti

baʼzi arenalarda K pop yulduzlari safar qilolmaydigan joylarda ham hologram orqali konsert beradi. Hattoki, mashhur guruhlarining virtual konsertlari butun dunyo boʻylab jonli translyatsiya qilinadi.

Koreyada Gocheok Sky Dome konsert muassasasi taxminan 17 000 tomoshabinga moʻljallangan va yopiq arenalarda orasida dunyodagi eng katta arenalardan biri hisoblanadi.

Koreyada katta konsertlarda faqat sahna yonida emas, balki arenaning turli burchaklarida fan merchandise boʻlimlari boʻladi. Bu joylarda konsertdan oldin ham, keyin ham lightstick, plakat va kiyimlar sotiladi. K pop konsertlari nafaqat musiqiy tadbir, balki turizm, mehmonxona, transport va savdoni rivojlantiradi. Masalan, Seulning yirik konsert kunlarida shahar butunlay toʻladi va iqtisodiy foyda millionlab dollarni tashkil qiladi.

Fransiya ham madaniyat sohasini rivojlantirish borasida boy tajribaga ega davlat hisoblanadi. Bu mamlakatda madaniyat davlat siyosatining muhim qismi sifatida qaraladi. Hukumat sanʼat va madaniyatni qoʻllab-quvvatlash uchun katta mablagʻ ajratadi.

Fransiyaning eng muhim tajribalaridan biri Maison de la Culture modeli hisoblanadi. Bu markazlar mamlakatning turli hududlarida tashkil etilgan boʻlib, madaniyatni keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladi. Fransiya tajribasi shuni koʻrsatadiki, madaniyat siyosati barqaror boʻlishi uchun davlat qoʻllab-quvvatlovi muhim omil hisoblanadi. Mazkur bino Parijdagi eng katta yopiq konsert arenalardan biri. Taxminan 20 ming tomoshabinga moʻljallangan. Rok, pop, klassik konsertlar va sport tadbirlari oʻtkaziladi.

Konsert va tomosha muassasalari jamiyatning madaniy hayotida muhim oʻrin tutadi. Ular sanʼatni rivojlantirish, ijodkorlarni qoʻllab-quvvatlash va jamiyatda estetik muhit yaratishga xizmat qiladi. Xorijiy tajribani oʻrganish esa madaniyat sohasini modernizatsiya qilish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Janubiy Koreya va Fransiya tajribasi shuni koʻrsatadiki, innovatsiya, texnologiya va ochiqlik madaniyat rivojining asosiy omillaridir. Biroq eng muhim jihat shundaki, xorijiy tajribani koʻr-koʻrona taqlid qilish emas, balki milliy madaniy anʼanalar bilan uygʻunlashtirish zarur. Ana shundagina Oʻzbekiston madaniyat sohasi yangi bosqichga koʻtarilib, global madaniy makonda oʻziga xos oʻrin egallashi mumkin. Madaniyat esa har doimgidek jamiyatni birlashtiruvchi, ilhomlantiruvchi va rivojlantiruvchi kuch boʻlib qoladi.



BAXTIYOR SAMIYEV,
“Madaniyat va san’at muassasalari
faoliyatini tashkil etish hamda
boshqarish” ta’lim yo’nalishi
4-bosqich talabasi,
Islom Karimov nomli
davlat stipendiyasi sohibi

XALQ IJODIYOTI — ILMIY VA IJODIY FAKULTET

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tarkibidagi “Xalq ijodiyoti” fakulteti O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 4-iyundagi “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1771-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Xalq ijodiyoti fakulteti respublikamizning madaniyat va san’at sohalari uchun yetuk, zamon talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Bu maskanda tahsil olayotgan har bir talaba nafaqat kasb egasi bo‘lib yetishadi, balki milliy qadriyatlarimizni chuqur anglaydigan, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga qodir ijodkor shaxs sifatida shakllanadi.

Fakultetning asosiy vazifasi — xalq ijodiyoti an’analarini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirgan holda, badiiy ijodning yangi metodlarini, innovatsion texnika va texnologiyalarni puxta egallagan malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu yerda talabalar madaniy-ma’naviy boyliklarimizni asrash, ularni yanada boyitish hamda xalqimizning bebaho tarixiy merosini kelajak avlodga yetkazishdek sharaflari maqsad sari yo‘naltiriladi. Shu bilan birga, fakultetda ta’lim jarayoni zamonaviy usullar asosida tashkil etilgan. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va elektron resurslardan samarali foydalanish orqali darslar yanada qiziqarli va mazmunli o‘tiladi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashini, keng dunyoqarashga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Eng muhimi, bu dargoh yoshlarni vatanparvarlik, milliy g‘oyaga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Bu yerda bilim olish bilan birga, inson o‘zligini anglaydi, o‘z ildizlariga hurmat bilan qarashni o‘rganadi va kelajak oldidagi mas’uliyatini his etadi.

Xalq ijodiyoti fakulteti bugungi kunda turli yo‘nalishlarda yetuk mutaxassislarni tayyorlab, o‘zining keng qamrovi ta’lim tizimi bilan ajralib turadi. Fakultet tarkibida muzeyshunoslikdan tortib, xalq ijodining turli ijrochilik yo‘nalishlari, shuningdek, boshqaruv va zamonaviy xizmat ko‘rsatish sohalarigacha bo‘lgan bir qator ta’lim yo‘nalishlari mavjud. Xususan, muzeyshunoslik yo‘nalishi orqali talabalar tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda targ‘ib etish sirlarini o‘rganadilar. Xalq ijodiyotining cholg‘u ijrochiligi, folklor ijrochiligi va an’anaviy xonandalik yo‘nalishlarida esa milliy san’atimizning betakror namunalarini amaliy jihatdan puxta o‘rganiladi.

Bundan tashqari, san’at sohasida produserlik hamda madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishlari zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Menejment va inson resurslarini boshqarish kabi yo‘nalishlar esa talabalarni tashkilotchilik va rahbarlik faoliyatiga tayyorlaydi. Shuningdek, turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi orqali milliy madaniyatimizni dunyoga tanitish, yurtimizga tashrif buyuruvchi mehmonlarga yuksak darajada xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar beriladi. Ana shunday keng imkoniyatlar Xalq ijodiyoti fakultetini nafaqat ijodiy, balki ilmiy va amaliy jihatdan ham kuchli maskanga aylantiradi.

Fakultetimizda bugungi kunda elimizning sevimli va taniqli san’atkorlari, o‘z sohasining yetuk namoyandalari talabalarga saboq berib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi Beknazar Do‘stmurodov, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Xayrulla Lutfullayev, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi Jo‘ra Shukurov, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi Orolmirzo Safarov, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi Mashrabjon Ermatov, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi O‘rozali Toshmatov, O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi Soyibjon Niyozov, shuningdek, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Komiljon Shermatov hamda professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rustam Abdullayev kabi ustozlar yosh avlodga o‘z bilim va tajribalarini ulashib kelmoqdalar.

Xalq ijodiyoti fakultetida ta’lim jarayoni nafaqat ijodkor san’atkorlar, balki turli sohalarining yetuk olim va professorlari tomonidan ham olib boriladi. Bu esa ta’lim sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Jumladan, madaniyat va san’at sohasini boshqarish, tashkil etish hamda iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishida sotsiologiya fanlari doktori, professor A.Umarov, san’atshunoslik

fanlari doktori, professor B.Shodiyev, falsafa fanlari doktori, professor V.Alimasov, professor M.Yo‘ldasheva, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent S.Ikramov, v.b. professorlar V.Rustamov va R.Yusupova, shuningdek, texnika fanlari nomzodi, dotsent T.Fayziyev, siyosiy fanlar doktori, dotsent D.Yusupaliyeva, falsafa fanlari doktori, dotsent M.Mavrulova, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent S.Ergasheva, iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent O.Dustmuhammedov hamda dotsent M.Xolmo‘minovlar talabalarda soha bo‘yicha amaliy-nazariy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishda muhim o‘rin egallab kelmoqdalar. Ularning ilmiy salohiyati va boy tajribasi talabalar uchun chuqur bilim manbai bo‘lib, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ijodiyoti fakultetida tahsil olayotgan iqtidorli va faol talabalar bugungi kunda turli yutuqlari bilan ham alohida e’tirof etilmoqda. Ular orasida Prezident davlat stipendiyasi sohibalari N.Maratova, A.Xayriddinova, H.Alibekova, shuningdek, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sohiblari B.Samiyev va Z.Jumanazarov bor. Shuningdek, Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibalari O.Ortiqboyeva, M.Ikromova, Ch.Suvonova va M.Nabiyevlar ham o‘z bilim va intilishlari bilan ajralib turadilar. Fakultetimiz talabalari orasida “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni sohibasi S.Akbaraliyeva ham mavjud bo‘lib, u o‘z faoliyati bilan ko‘plab yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, “Talaba Fest” loyihasi doirasida o‘tkazilgan “Talaba Talant” kreativ shousida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan M.Sattorov, J.Xatamov va S.Abdullayev kabi iqtidorli yoshlar ham fakultetimizning ijodiy salohiyatini yanada yuksaltirib kelmoqda.

Undan tashqari, Basketbol, voleybol, futbol, shaxmat va stol tennis kabi sport turlarida ham xalq ijodiyoti fakultetining iqtidorli o‘g‘il-qizlari muntazam ravishda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqdalar. Xususan, institutimizda o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston talabalar olimpiadasi” musobaqasida fakultetimiz talabalari yuqori natijalarni qayd etdilar. Jumladan, stol tennis bo‘yicha qizlar o‘rtasida E‘zoza Jo‘raboyeva va Laylo O‘tkirova faxrli 1-o‘rinlarni egalladilar. Yigitlar o‘rtasida yugurish bo‘yicha Azizbek Abdullayev, kurash bo‘yicha Pahlavon Maqsudov 1-o‘rinni qo‘lga kiritdilar. Jamoaviy sport turlarida esa fakultetimiz yanada katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Basketbol, voleybol va mini-futbol musobaqalarining yigitlar va qizlar jamoalari barcha yo‘nalishlarda 1-o‘rinni egallab, umumjamoa hisobida ham yuqori natijani qayd etdilar. Bu yutuqlar Xalq ijodiyoti fakultetida nafaqat ijodiy, balki sport va sog‘lom turmush tarziga ham katta e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Talabalarning bunday yutuqlari fakultet obro‘-sini yanada yuksaltirib, undagi jipslik va faollik muhitini yaqqol namoyon etadi.

Ayni vaqtda Xalq ijodiyoti fakulteti qoshida bir qator ijodiy jamoalar va to‘garaklar faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, “Chashma” folklor-etnografik ansambli, “Sayqal” ashula va raqs ansambli, “The language and art”, “Kreativ menejment”, “Shaxmat” kabi yo‘nalishlar hamda turli ilmiy-ijodiy to‘garaklar talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jamoalar nafaqat auditoriya ichida, balki keng jamoatchilik oldida ham faol ishtirok etib, milliy san’atimizni targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. O‘tgan yillar davomida fakultetning badiiy jamoalari shahar, respublika miqyosdagi festival va ko‘rik-tanlovlarda muntazam ishtirok etib, munosib natijalarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Bu esa fakultetda yaratilgan ijodiy muhitning samaradorligini

yaqqol namoyon etadi.

Fakultet hayotining yana bir muhim jihatini alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bu yerda talabalarning kundalik hayoti faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmaydi. Xalq ijodiyoti fakultetida har kuni turli mavzularda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ilmiy seminarlar, amaliy treninglar hamda davra suhbatlari muntazam o‘tkazib boriladi. Misol chun, mashhur insonlar bilan bo‘lib o‘tadigan uchrashuvlar, ularning hayotiy tajribasi va ijodiy yo‘li haqidagi samimiy suhbatlar talabalar uchun katta ilhom manbai bo‘ladi. Yana bir qarasangiz, milliy cholg‘ular bo‘yicha qizg‘in bellashuvlar, dutor, rubob, doira sadolari yangrab, auditoriyalarni haqiqiy san’at muhitiga aylantiradi. Ba’zan esa amaliy mahorat bellashuvlari, pazandalik tanlovlari yoki turli kreativ loyihalar orqali talabalarning iqtidor va tashabbuskorligi sinovdan o‘tadi. Shu tariqa Xalq ijodiyoti fakultetida har bir kun o‘ziga xos rang-baranglikka ega, bir tomonda ilm, bir tomonda ijod, yana bir tomonda esa milliy an’analar va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unlashib ketgan betakror muhit hukm suradi. Bu tadbirlar talabalar uchun nafaqat bilim manbai, balki hayotiy tajriba va ijodiy fikrlashni shakllantiradigan muhim jarayon bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, xalq ijodiyoti fakulteti tom ma’noda ham ilmiy, ham ijodiy maskandir. Bu yerda nazariy bilimlar amaliy ijod bilan uyg‘unlashib, talabalar bir vaqtning o‘zida ham tadqiqotchi, ham ijodkor sifatida shakllanadi. Fakultetdagi rang-barang tadbirlar, ilmiy seminarlar, ijodiy bellashuvlar va ustoz-shogird an’analar shuni yaqqol ko‘rsatadiki, bu dargohda bilim olish jarayoni jonli ijodiy muhit bilan chambarchas bog‘langan. Har bir yo‘nalish, har bir mashg‘ulot va har bir tashabbus talabaning dunyoqarashini kengaytirish, uning iste’dodini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, bu fakultetni faqat ta’lim maskani emas, balki ilm va san’at uyg‘unlashgan, ijodiy fikr va milliy qadriyatlar rivoj topadigan betakror makon deb atash mumkin.

Shuningdek, institutimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib, fidokorona va samarali faoliyat yuritib kelayotgan fakulteti dekani Ma’murjon To‘rayev Navro‘z bayrami shodiyonalari doirasida institut rektori tomonidan munosib taqdirlandi. Taqdirlash marosimida dekanimizga institut rektori tomonidan tashakkurnoma hamda pul mukofoti topshirildi. Ushbu e’tirof — uzoq yillik mehnat, mas’uliyat va jamoa bilan hamjihatlikda olib borilgan samarali faoliyatning yuksak bahosidir. Ma’murjon To‘rayevning tashabbuskorligi, tashkilotchilik salohiyati, talaba-yoshlar bilan ishlashdagi faolligi hamda fakultet rivoji yo‘lidagi izchil sa’y-harakatlari jamoa orasida alohida e’tirof etilmoqda. Mazkur mukofot nafaqat bir insonning yutug‘i, balki butun fakultet jamoasining birdamligi, izlanishlari va qo‘lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarining yorqin ifodasidir.

Shu o‘rinda bizga bunday keng imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratib berayotgan hurmatli Prezidentimizga, bizni doimo qo‘llab-quvvatlab, bilim olishimiz va ijodiy rivojlanishimizga munosib muhit yaratib berayotgan institutimiz rahbariyatiga, bizga ilm va hayot saboqlarini berayotgan ustozlarimizga, shuningdek, har doim orqamizda tog‘dek turib, “farzandim hech kimdan kam bo‘lmasin” — degan ezgu niyat bilan bizni yedirib-kiydinib, duolarida sog‘lik, omonlik va muvaffaqiyatlar tilab kelayotgan ota-onalarimizga chin dildan katta rahmat va minnatdorchilik bildiramiz. Ularning har biri bizning bugungi yutuqlarimiz va kelajakdagi orzularimiz uchun mustahkam tayanch, ilhom va kuch manbaidir.

Kitob o'qimaydigan avlod muammosi:

Tarixga nazar tashlasak, ilmfanning yuksalishi, o'sishi davri kitob bilan uzviy bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi uzoq yillar davomida boshqa davlatlar bilan jumladan, Hindiston, Yunoniston, Rossiya kabi mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, madaniy aloqada bo'lishgan. Ushbu aloqalar orqali tarjima adabiyotlar vujudga kelgan va o'z navbatida boshqa xalqlar urf-odati hamda ilmlaridan bahramand bo'lishga eshik ochilgan.

Qaysi bir uyg'onish davri bo'lmasin, alomalarimiz kitobni eng yaqin do'st, hamroh sifatida qadrlaganlar. Ilm o'rganish va uni o'rgatishni jamiyat rivojlanishi uchun asosiy vosita sifatida qadrlaganlar. Adabiyotlar orqali borliqdagi turli ma'lumotlardan xabardor bo'lishgan. Ammo bugungi globalashuv va axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan davrda yosh avlodning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi masalasi tobora dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Yoshi kattalar-u kichiklarning barchasi mana shu qo'lidagi telefonlarga bog'lanib qolishi katta fojialardan biriga aylanishga ulgurdi. Natijada, kitob o'qimaydigan yoki mutolaa madaniyati yetarli darajada shakllanmagan avlod haqida xavotirlar paydo bo'ldi.

Aslini olganda, kitob faqatgina tafakkurimizni o'stiribgina qolmay, balki fikrlashimizni va dunyoqarashimizni kengaytirishga dunyodagi ilmlarning barchasidan xabardor bo'lishga yordam beradi. Shuning uchun ham kitobga muhabbat, avvalo, oiladan ya'ni ota-onadan o'tsa, maktabga qadam qo'ygach maktab kutubxonasining qanchalik boyligi-yu shu yerda o'quvchilar o'qishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligi bilan o'lchanadi. Shunday ekan, kelting haqiqatdan ham maktab kutubxonasi



MAKTAB KUTUBXONASI YECHIM BO'LA OLADIMI?

mana shu, muammolarga yechim bo'la oladimi degan savolga yechim qidiramiz.

Texnologiya rivojlandi, axborot yetkazish osonlashdi, bu esa tayyorini tezda o'zlashtirib olib, insonlarning yanada dargasa bo'lishiga sharoit yaratib berdi. Ma'lumot ko'p, ular orasida foydali hamda behudaga vaqtimizni o'g'iraydiganlari ham ortib bordi. Ayniqsa qisqa, foydasiz video tasvirlar tarmoqlarda keng o'rinni egalladi, vaqtimizni samarasiz ishlatilishiga sabab bo'ldi. Bu esa "Kitob o'qimaydigan avlod" jumlasini dolzarb mavzuga aylanishga ulgurishiga zamin yaratdi.

Bunday muammolarning yuzaga kelishiga sabablarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, birinchidan ijtimoiy tarmoqlarning tezda shiddat bilan ommalashuvi, axborotning ko'pligi bo'lsa, ikkinchidan oilalarda farzandga e'tiborning kamligi, nazoratning susayishi, ishlayapman deya bolasiga vaqt ajrata olmayotgani va ko'p maktab kutubxonalarning fondlari eskir-

ganligi, zamonaviy jihozlar va kitoblarning yetishmasligi, kamligi o'qishga bo'lgan qiziqishni yanada pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, o'quvchilarda kitob o'qish odatini shakllantirishga yetarli darajada e'tibor berilmayotgani, ba'zi hollarda yoshlar kitobni majburiyat sifatida qabul qilib, natijada mutolaa ularga qiziqarli mashg'ulot bo'lib tuyulmasligi yuzaga kelmoqda. Shuningdek, zamonaviy yoshlar tezkor va qisqa axborotga o'rganib qolayotgani sababli katta hajmdagi matnlarni o'qishga sabr yetishmasligi ham kuzatiladi. Qo'shimcha yana bir muhim omillardan biri shundaki, ayrim ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish ishlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Bu kabi kamchiliklar-u sabablar ko'p, ammo yaxshilab, o'ylab har taraflama barchaning talab va taklifiga mos keladigan adabiy muhit yaratish, kutubxonadagi fondni turli rang-barang barcha uchun kirkanda, yana shu joyga takror va takror



SABINA XUDOYBERDIYEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

kelishiga sabab bo'ladigan tarzda tashkil etilsa, xodimlarni tanlashda ham uning ilmi, salohiyati bilan bir qatorda muomala madaniyatini inobatga olgan holda zamonaviy did va dizaynni yaxshi tushunadigan, sohani o'z kasbini sevuvchi malakali mutaxassislarni qabul qilishga e'tibor berishi muhim hisoblanadi. Faqatgina fondning yangiligi, kitoblarning xilma-xil mavzuda bo'lishi yetarli emas. An'anaviy kitoblar bilan bir qatorda elektron kitoblar va audio-kitoblarni joriy etish bugungi raqamli avlod uchun samarali usuldir. Raqamli vositalardan butunlay voz kechish emas, balki ularni to'g'ri maqsadga yo'naltirish muhim. Kutubxonada "Eng faol kitobxon" tanlovlari, kitob muhokamalari, ijodiy uchrashuvlar va kichik seminarlar tashkil etilishi o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. O'qituvchi va kutubxonachi o'rtasidagi hamkorlik bu jarayonni yanada samarali qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarning qiziqishi va yoshini inobatga olgan holda adabiyotni me'yorida tavsiya etish muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, kitob o'qimaydigan avlod muammosi jamiyat uchun fojialidir. Mutolaa madaniyati susayib yo'qolsa, jamiyat o'z-o'zidan tanazzulga uchraydi.

Ma'naviyat va moddiylik to'qnashuvi: "Fulminiya" spektakli katta sahna sari dadil qadam

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatrida uzoq kutilgan va san'at ahli o'rtasida katta qiziqish uyg'otgan premyera muvaffaqiyatli bo'lib o'tdi. Teatr san'ati fakulteti "Estrada aktyorligi" ta'lim yo'nalishi talabalari hamda institutning ko'p yillik tajribaga ega yetuk ustoz-pedagoglari hamkorligida sahnalashtirilgan "Fulminiya" spektakli tomoshabinlar e'tiboriga taqdim etildi.

Mazkur sahna asari nafaqat talabalarning o'quv rejasi doirasidagi navbatdagi ijodiy imtihoni, balki bugungi davr jamiyatining eng og'riqli va dolzarb muammolarini dadil ko'tarib chiqqan jiddiy falsafiy mushohada maydoniga aylandi. Katta qiziqish va yuqori kayfiyat bilan kutib olingan namoyishda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, soha mutaxassislari, teatr mu-naqqidlari, professor-o'qituvchilar hamda san'atsevar talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Spektaklning yuksak badiiy va professional saviyada tomoshabinga taqdim etilishida institutning nufuzli ijodiy jamoasining xizmati beqiyosdir. Sahna asarining badiiy rahbari: professor Mahmud Rashidov hamda "Aktyorlik mahorati" fani o'qituvchilari: dotsent Shavkat Rasu-



MARJONA XOLTOYEVA,
"San'at jurnalistikasi"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

lov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Muhabbat G'ulomova boshchiligidagi 3-bosqich talabalari nihoyatda murakkab, ziddiyatli va serqirra obrazlar talqinini sahnada yuqori mahorat bilan ijro etib berdilar. Ustoz va shogird an'analarning go'zal namoyishi bo'lgan ushbu asar yosh ijodkorlarning professional teatr olami va katta sahna sari tashlagan eng dadil, sharaflil hamda muvaffaqiyatli qadamlaridan biriga aylandi.

Slovak dramaturgi Ivan Bukovchanning mashhur "Luidji yuragi" pyesasi asosida qayta ishlangan "Fulminiya" spektakli insoniy tuyg'ular va bugungi texnokratik, sovuq, moddiylikka asoslangan dunyo o'rtasidagi keskin to'qnashuvni ochib beruvchi chuqur falsafiy drama hisoblanadi. Voqealar markazida o'lim jazosini kutayotgan mahkum Luidji turadi. Luidjining sodir etgan aybi, uning ichki kechinmalari yoki fojiali qismati bilan emas, balki uning ko'krigida urib turgan, tibbiy jihatdan butunlay "nuqsansiz va mukammal" bo'lgan yuragi bilan qiziqadi. Jamiyat a'zolari uning tirikligidayoq ushbu yurakni sotib olish, o'zlarining shaxsiy va moddiy manfaatlari yo'lida ishlatish payiga tushishadi. Bu orqali Luidjining yuragi shunchaki

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning

boshqaruv jarayonidagi ahamiyati

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat boshqaruvini tubdan yangilash, samaradorlikni oshirish va fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan demokratik tamoyillarni mustahkamlash jarayoni so'nggi yillarda chuqurlashib, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'lanmoqda. Yangi O'zbekistonda boshqaruv islohotlarining eng asosiy xususiyatlaridan biri – inson manfaatlarini ustuvor qo'yish va *"Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"*, degan tamoyilni hayotga tatbiq etishdir. Shu asosda barcha boshqaruv organlari faoliyatida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlari joriy etilib, davlat xizmatlari aholiga qulay va tezkor yetkazilishini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Islohotlarning boshqaruv jarayonlaridagi yana bir muhim jihati – raqamli boshqaruv tizimining joriy etilishi hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida elektron hukumat, elektron parlament va elektron sud kabi loyihalar amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlari faoliyatini samarali tashkil etish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Davlat boshqaruvi jarayonida kadrlar siyosatini takomillashtirish ham islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Rahbar va mutaxassislarni tanlashda ochiqlik va tanlov tamoyillari joriy etilib, malaka oshirish va qayta tayyorlash

tizimlari tubdan isloh qilinmoqda. Xususan, davlat xizmatchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish orqali boshqaruv jarayonida samaradorlik oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish, aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson qadri va manfaatlarini ustuvor qo'yishdan iborat bo'lib, bu tamoyil barcha boshqaruv jarayonlarining asosiy mezoniga aylanmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi asosida elektron hukumat, onlayn xizmatlar, mobil ilovalar kengaymoqda. Bu jarayon korrupsiyaga qarshi kurashish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va boshqaruv tizimini samarali qilishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, xalqaro kadrlar tayyorlash markazlari hamda xorijiy hamkorlikdagi dasturlar kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning boshqaruv jarayonlaridagi ahamiyati nihoyatda yuksakdir. Bu islohotlar orqali davlat boshqaruv tizimi zamonaviy talablar asosida takomillashmoqda, fuqarolarning davlat bilan

munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda va demokratik tamoyillarga asoslangan samarali boshqaruv modeli shakllanmoqda. Shu bilan birga, ushbu islohotlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab, Yangi O'zbekistonni demokratik, huquqiy va kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalashiga zamin yaratmoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar boshqaruv jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida tub burilish yasadi. Davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik, ochiqlik va samaradorlikni ta'minlash islohotlarning asosiy maqsadi bo'lib, u xalq va davlat o'rtasida ishonchli muloqot o'rnatilishiga xizmat qilmoqda. Islohotlar jarayonida "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil boshqaruvning yangi modelini shakllantirdi. Bu tamoyil asosida rahbarlarning mas'uliyati oshirilib, ularning faoliyati natijadorlik mezonlari asosida baholanmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar boshqaruvda markazlashuvdan bosqichma-bosqich voz kechib, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini kengaytirishga olib keldi. Bu esa joylardagi muammolarni tezkor hal etish, aholining ehtiyojlariga mos qarorlar qabul qilish,

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar boshqaruv jarayonlarida yangi bosqichni boshlab berdi. Ularning ahamiyati shundaki, islohotlar orqali davlat boshqaruvi tizimi zamon talablari asosida qayta qurilmoqda, xalq bilan yaqin muloqot yo'lga qo'yilmoqda, boshqaruv samaradorligi oshmoqda va eng muhimi, O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda. Demak, islohotlar boshqaruv jarayonlarida nafaqat dolzarb, balki strategik va tarixiy ahamiyat kasb etib, Yangi O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanish yo'lini belgilab bermoqda.



NARGIZA SHODMONOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi"
4-bosqich talabasi

boshqaruv tizimini xalqchil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, elektron hukumat tizimining keng joriy etilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatish amaliyoti fuqarolar uchun qulaylik yaratib, boshqaruvda samaradorlikni oshirdi. Islohotlarning muhim jihatlaridan yana biri bu korrupsiyaga qarshi kurashish, halollik va adolat tamoyillarini ustuvor qilishdir. Davlat xizmatchilari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, ularning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish orqali boshqaruv jarayonlarida sog'lom muhit yaratilmoqda. Shu bilan birga, kadrlar siyosatida yangilanishlar amalga oshirilib, bilimli, zamonaviy tafakkurga ega va tashabbuskor yoshlar rahbarlik lavozimlariga jalb qilinmoqda.



◀ Boshlanishi 4- betda

biologik a'zo emas, balki insoniy qadr-qimmat, vijdon, toza qalb va sadoqatning so'nggi qal'asi ekanini ko'rsatib beriladi.

Muallif g'oyasi va ijodiy jamoaning mahorati uyg'unlashgan holda, inson va uning a'zolari oddiy tovar darajasiga tushib qolayotgan bugungi globallashuv davrida ma'naviyatning har qanday moddiylikdan ustun ekani allegorik va ta'sirchan usullarda tasvirlangan. Spektakl har bir tomoshabinni teatr zalining o'zidayoq "Inson nima uchun yashaydi?", "Egoizm, pul va boylik hukmron bo'lgan dunyoda insoniylikni, qalb pokligini

qanday saqlab qolish mumkin?" degan o'ylantiruvchi, og'riqli savollar girdobiga tortadi va o'z-o'zini taftish qilishga majbur etadi.

Rejissura va sahnaviy yechimlar borasida ham asar yuksak bahoga loyiq. Spektaklda har bir kichik detal – zamonaviy vizual effektlar, chiroq va yorug'lik o'yinlari, musiqiy bezaklar hamda sahna dekoratsiyalari asarning umumiy konseptual g'oyasiga xizmat qilgan. Rejissyorlik yechimlari o'zining badiiy teranligi, ramziy ma'nolarga boyligi va dramaturglik aniqligi bilan ajralib turdi. Har bir mizanssena, qahramonlarning harakatlar uyg'unligi va aktyorlar ansamblining bir-birini to'ldiruvchi

ichki ritmi asar g'oyasini tomoshabin qalbiga be-xato va ta'sirchan tarzda yetkazishga zamin yaratdi.

Bo'lajak yosh aktyorlarning nozik psixologik ijrosi, rollarning ichki kechinmalaridagi samimiylilik va sahnadagi tabiiylilik zalda o'tirgan har bir tomoshabinda chuqur taassurot qoldirdi va ularni larzaga soldi.

Obrazlar xarakteridagi barqarorlik va hissiy holatlarning psixologik jihatdan to'g'ri ochib berilishi, ushbu talabalarining

kelajakda o'zbek teatri va kinosida o'z so'zini ayta oladigan haqiqiy professional kadrlar bo'lib yetishayotganidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, *"Fulminiya" spektakli shunchaki o'quv jarayonidagi navbatdagi imtihon ishi bo'lib qolmay, balki bugungi kunning eng dolzarb global va ma'naviy muammolarini jasorat bilan ko'tarib chiqqan yetuk san'at asari sifatida e'tirof etildi. Ijodiy jamoaning yuksak mas'uliyati, ustozlarning o'giti va talabalarining sahnadagi cheksiz shijoati, yonib ijro etishi uyg'unlashgan ushbu namoyish mutaxassislarning va teatr muxlislari yodida uzoq vaqt saqlanib qolishi shubhasizdir.*



OQILA ORTIQBOYEVA,
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

NEGA?

Chumolicha qadring bo'lmasa,
Hovuchingga mehr to'lmasa,
Javobsiz savollar o'lmasa,
"Nega?"lardan charchadim, do'stim.

G'amlarimni bag'rimga bosdim,
Alamlarni ko'nglimga osdim,
Qolganini yurakka yozdim,
"Nega?"lardan charchadim, do'stim.

Nechun ko'ngillarning ostonasi yo'q,
Halol insonlarning bahonasi yo'q?!
Ey inson, tobutning shohonasi yo'q,
"Nega?"lardan charchadim, do'stim.

Shuncha mehnatlaring havoga uchsa,
Orzularing o'rnin armoning quchsa,
Omading yo'qolib, obro'ying tushsa,
"Nega?"lardan charchadim, do'stim.

Yaratganning gulidir inson,
Mansabga, davlatga o'chligi yomon,
Endi o'zgagamas o'zingga ishon,
"Nega?"ardan charchadim, do'stim.



FERUZA JUMAYAEVA,
"Folklor va etnografiya"
ta'lim yo'nalishi (sirtqi)
2-bosqich talabasi



MUNIRA RAXIMOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim
yo'nalishi (sirtqi) 5-bosqich talabasi

DO'STLIK – NOMING O'ZI DOSTON!

Sahro bag'rida uyg'ongan bir nurli zamon,
Qumlar ichra qad ko'tardi orzuli makon,
Mehnat bilan gulga to'ldi har bir tomon,
Do'stlik, sening noming o'zi doston.

Oq paxtang pok niyatdek zamin bag'rida,
G'allang oltin quyosh misol dalang sahnida,
Pillang ipak bo'lib oqar mehnat taftida,
Barakang bor har bir rizqning yashil tanida.

Cho'lquvarlar jasoratning tirik timsoli,
Qumdan bog'lar yaratgan dehqonning qo'li,
Ter tomchisi gavhardekdir, nurli, ziyoli,
Ular bilan yashnar do'stlik, baxt iqboli.

Bu zaminda urar turli millat nafasi,
Ahillikdir bu maskanning eng pok nafasi,
Do'stlik so'zi birlashuvning oltin fasli,
Mehr bilan mustahkamdir uning sasi.

Obod ko'cha, nurli uylar, zavodlar qator,
Yangilanish shamoli bor har uyda bahor,
Kelajakni bunyod etar mard va fidokor,
Do'stlik, sening sha'ningga bu madhim alyor.

Ey sahrodan shahar qilgan azmu shijoat,
Senda mujassamdir mehnat, iymon, sadoqat,
Noming bilan faxrlandi har bir millat,
Do'stlik, senda abadiydir, porloq saodat.

DEHQON BOBO

Yer haydasang kuz hayda,
Degan ota-bobolar,
Haydamasang befoyda,
Ekkaningdan na foyda?

Dehgon bobo, bog'bon bobo,
Yerginangni haydagin,
Dehgon bobo, bog'bon bobo,
O'rganingni ayagin.

Niyat qilib, donni sochdingiz yerga,
Belbog'ingiz mahkam bog'langiz belga,
Donni sepib, urug' qadab zaminga,
Bug'doy pishib, non bo'ladi tandirda.

Erta bahor nihollarni qadaylik,
Qish chillasi ketdi biz uyg'onaylik,
Xudoyimdan yurtga tinchlik so'raylik,
Shu yurtimda obod qo'rg'on quraylik.



O'ZBEKTOSH TO'RAXONLI,
"Dramatik teatr rejissyorligi"
mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

TURKSOY MADHIYASI

Quyoshdan yaralgan turklar davlati,
Olamni zabt etgan shoni, shavkati,
Hirotdan to Sibir yoyilgan xati,
Shiddat o'lkasida hoqon turkiymiz,
O'zbek, qozoq, turkman – bir jon turkiymiz!

Islom rivojida siyosati bor,
Ozodlik yo'lida nomdor, ulug'vor,
Zaminga obodlik sochgan bayroqdor,
Jahon ichra ming bir jahon turkiymiz,
O'zbek, qirg'iz, ozar – bir jon turkiymiz!

Ba'zi chavandozlar egar ne bilmas,
Lek turk ustozini nazarga ilmas,
Ot chopishda hech kim bizga teng kelmas,
Jahon ichra ming bir doston turkiymiz,
O'zbek, bolqar, qo'miq – bir jon turkiymiz!

Asrlar bag'rida sahro lolasi,
Apoq-chapoq og'a-ini bolasi,
Bo'ysunmas qanotli bo'ri galasi,
Ontida mustahkam iymon turkiymiz,
O'zbek, boshqird, tatar – bir jon turkiymiz!

Turk tog'i qoshidan quyosh ildizi,
Nayzasin uchida erkning yulduzi,
Kaftida yozilgan mehnatning izi,
O'z o'tov uyida shodon turkiymiz,
O'zbek, hakas, tuva – bir jon turkiymiz!

Kimda Turk qoni bor – barchasi yaxshi,
Qoraqalpoq, saha, hazarim naqshi,
Do'mbirasin chertar O'zbektosh Baxshi,
San'at, madaniyatda hoqon turkiymiz,
O'zbek, chuvash, oltoy bir jon turkiymiz!

Turkiya va xunlar omon turkiymiz,
O'zbekiston kabi osmon turkiymiz!

TARIXDAGI ENG BAXTSIZ AVLOD

Yoshlik chog'i katta hayot tashvishlaridan holi, muammolardan uzoqda, erkinlikdan bahra oladigan davr hisoblanadi. 25-30 yoshgacha nisbatan yo'qotishlar kam, faqat o'zi uchun qaror qabul qiladigan hamda mablag' faqat o'zigagina ishlatilganligi sababli betashvish, umrning bahor fasli deb ataladi. Hozirgi yoshlarning katta qismini Zed avlod ya'ni "zummer"lar qamrab oladi. Bularga 1997-2010-yillar oralig'ida tug'ilganlar kiradi.

"Fortune" saytiga joylangan maqolada yozilishicha Global Flourishing Studying natijalariga ko'ra, Harvard va Baylor universitetlari 200 mingdan ortiq odamlardan 22 ta mamlakat bo'ylab ma'lumotlar yig'ishgan. Ular shuni aniqlashdiki, 18 va 29 yosh oralig'ida bo'lgan yoshlar eng baxtsiz avlod. Buning sabablari aqliy va jismoniy sog'likdagi muammolar, xarakterdagi salbiy qarashlar, yashashdan ma'no topish haqida ortiqcha o'ylov, moddiy jihatdan yetishmovchiliklar va munosabatlardagi sifatdir.

Harvardning farovonlik bo'yicha ko'rsatgichi hisoboti o'z ichiga baxtililik darajasi, hayotdan minnatdorlik, jismoniy va aqliy salomatlik, yashashdan maqsad va ma'no, yaqin ijtimoiy munosabatlar kabi mezonlarni oladi. Bu orqali tadqiqotchilar ishtirokchilarning hayotlaridan qanchalik mamnun ekanliklarini aniqlashadi.

Zed avlod nega baxtsiz? World Happiness Report tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, hayot tarzidan qoniqish va baxt darajasi oxirgi o'n yillikda yosh avlod orasida pasayish kuzatilgan. AQShda Yoshlar xavfsizligini ta'minlash tashkilotining hisobot berishicha amerikalik zed avlod orasida xavotir va depressiya keskin oshgan, ayniqsa qizlarda. 2023-yilda yuqori maktab o'quvchilari bilan izlanish olib borilganda tushkunlik va umidsizlik qizlarda 58 foizni tashkil etsa, o'g'il bolalarda 28 foiz bo'lgan.

Global Flourishing Study direktori hisobotda shunday yozadi: "Yosh avlod oldingidek baxtli, quvnoq emas. Qanday sabab keltirishdan qat'iy nazar ruhiy va aqliy salomatliklarida muammolar ko'paymoqda".

Baxtililik darajasining keskin tushib ketishining yana bir sababi ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridir. Qisqa videolardagi baxtli bo'lishning narxi qimmat ko'rsatilishi, vaholanki foydalanuvchilarning solishtirishlari bu holga sabab bo'ladi. Shu bilan birga kuniga o'rtacha 5 soat vaqt ijtimoiy tarmoqda sarflanishi, ayniqsa qisqa, chalg'ituvchi videolar uchun hamda tun yarmigacha ekran oldida faol turish yoshlarda aybdorlik, norozilik hissini uyg'otadi. Ko'p chalg'ish esa asosiy maqsadga olib boradigan yo'lni to'sadi, shu asnoda maqsadsiz yoshlar soni ortadi. Qisqa videolar tamaki chekish kabi o'ziga o'rgatib qo'ygani bois bu odat yoqmasa ham qutulish qiyin bo'ladi.

Yurtimiz va xalqaro miqyosdagi yoshlar fikriga qaraydigan bo'lsak, pandemiya davridan keyingi hayot mazmuni yo'qolib qolgan, dunyo rangsiz va odamlar bir-biriga befarq bo'lib qolishgan. Buning sababi odamlar uylarida oylab yolg'iz va tashqi dunyodan uzilib qolganlar.

Shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning beqarorligi hamda kelajak haqidagi xavotir ham "kayfiyatsizlik"ning muhim omillaridan. Muvaffaqiyatli bo'lish va mashhur



bo'lish uchun raqobatning kuchayganligi hamda har bir sohaga kirib kelayotgan sun'iy ong sabab kelajakda ishsiz qolishdan qo'rqish bugungi yoshlarni tashvishga solmoqda. Bugun quvnoq va baxtiyor yashayotgan yosh avlodni ertaga baxtsiz bo'lib qolishlari haqidagi qo'rquv hali kelib ulgurmagan muammolar haqida ortiqcha o'ylash hayotdan yetarlicha zavq olishga to'sqinlik qilmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, globallashuv davrida yoshlar dunyoda sodir bo'layotgan hamma narsadan xabardor. Ko'p yoshlar yangi trendlarga ergashishni sevishadi, ammo barcha hukumatning ham yosh fuqarolarni xohishlarini qondirishga imkoniyatlari yetmaydi. Xohish-istaklar va orzular amalga oshmasdan qolaverar ekan o'sha jamiyatda norozi va baxtsiz yoshlar shakllanaveradi. Buning eng yomon oqibatini joriy yil Nepalda bo'lgan voqealar misolida ko'rishimiz mumkin. Baxtsizlik sababiga global miqyosda qaraydigan bo'lsak, hozirgi avlod yillar davomida insoniyat tarixidagi eng dahshatli hodisa hisoblanmish I va II jahon urushlari haqidagi qorong'i hikoyalarni eshitib, o'qib katta bo'lishgan.

Yangi asrdagi notinchliklar, dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan urushlar, odamlarda qora urush vayronalari, shaharlarning yakson bo'lishi, millionlab odamlarning qurbon bo'lish voqealarini ko'z oldida gavdalanitiradi va buni ekran orqali ko'rmoqdalar. Shu asnoda kelajaklari tahlika ostida turganligi tasavvurini paydo qiladi. Jahon miqyosidagi noxush axborotlardan kunlik xabardor bo'lishlari, misol uchun, suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari, zilzila, ocharchilik, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishlari, muzliklar erib okeanlar sathi ko'tarilib borayotgani esa sayyoramiz tobora yashash uchun yaroqsiz bo'lib borayotganidan darak beradi. Odamlarni bunday xabarlardan cheklab bo'lmaydi, chunki bu ma'lumotlar

orqali tabiatni asrashga va turli vaziyatlarda ogohlikka chaqiriladi. Lekin xabarlar qanchalik salbiy bo'lsa, qabul qiluvchilarda xavotir va tushkun energiya shakllanib boraveradi.

So'nggi yillarda, ayniqsa 2025-yilda trendga aylangan "cringe" so'zi yoshlarning hissiyotini o'ldirmoqda. Samimiy, beg'ubor bo'lish, rang-baranglikda yas-

amallar, sog'lom munosabatlar, o'zgachalikni saqlagan holda jamiyat bilan birlashish, taraqqiyotga sabab bo'ladigan qandaydir harakat qismiga aylanishdan keladi. Shuningdek, yaxshi sharoitda yashash, hayot mazmunini aniqlashtirib muhim maqsadlarga ega bo'lish, o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish hamda tabiat bilan bog'liklik ham shu qatordadir. Shuni yodda tutish kerak – hech kim har doim baxtli yoki baxtsiz yashamaydi. Haqiqatdan, qismatiga rozi bo'lish va hissiyotlarga vaqti bilan erk berish baxt kaliti hisoblanadi. Biz insonlarning umumiy farovonligi "eng oliy baxt" deb ishonamiz va jamiyatdagi barcha boshqa narsalar aynan shunga xizmat qilishi lozim. Hayotda qadrlanadigan barcha narsalar, misol uchun, sog'lik, adolat, ozodlik, iqtisod, atrof-muhit va shu kabilarning barchasi sog'lom jamiyat yaratish uchun juda muhimdir va bu kelajak avlod uchun ham saqlanishi kerak.

Qanday qilib baxtli va yaxshiroq yashasa bo'ladi? Yaxshilik qo'lini cho'zish. Yaqinlarga, umuman olganda atrof-dagilarga g'amxo'rlik qilish. Yaxshilik qo'lini cho'zish har doim ham moddiy tomonlama bo'lmasligi mumkin. Birga vaqt o'tkazish, ko'ngildan suhbatlashish, hatto jilmayib qo'yish, yaxshi hamroh bo'lish va tinglay olish ham yaxshilik. Boshqalarning quvonchiga hissa qo'shish ham ijobiy energiya yaratadi.

Kuchli munosabatga ega insonlar ko'proq baxtli yashar ekan. Oila va do'stlar yoki jufti bilan aloqalar qanchalik mustahkam bo'lsa, sevish, hayot mazmunini anglash, halovat topish, qo'llab-quvvatlash, hissiyotlar erkinligi va o'zini qadrlash ham osonlashadi.

Sog'lik esa baxt ro'yxatining eng yuqorisida turadi. Sog'lom ong va tana orqali baxtning boshqa qirralari kashf qilinadi. Sog'lom tanaga erishish uchun marafon yoki sport zaliga doimiy qatnashish zarur degan stereotiplarni yo'qotish kerak. Kunlik yengil mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, yetarlicha uxlash bilan ham yaxshi natijaga erishsa bo'ladi, muhimi izchillik. Aqliy rivojlanish uchun doimiy bilim olishdan to'xtamaslik kerak. Kitob bilan do'stlashish, dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklarni kuzatish va tahlil qilish, yangiliklarni sinab ko'rish, til o'rganish, bilimga chanqoqlik miya faoliyati uchun katta rag'batdir.

Hech kim mukammal emas! Ammo yoshlar har doim o'zlarini real voqelikka to'g'ri kelmaydigan odamlarning hayot tarzi bilan solishtirishadi. Faqat kamchiliklarga, ya'ni nimalarga ega bo'lmaganlikka haddan tashqari yopishib olish baxt yo'lini to'sadi. Qabul qilishni o'rganish lozim, kechirimli bo'lish ham yaxshi fazilat. Nafaqat boshqalarga, balki o'zi qilgan xatolarni ham qabul qilib kechirish zarur. Yuqorida aytilganidek, hech kim mutlaqo baxtli yashamaydi. Shunday ekan hech kim har doim baxtsiz umr guzaronlik qilmaydi. Hammasi vaqtincha ekanligini anglash lozim. Baxt bu kecha va ertaning o'rtasida. Kelajakdagi, hali kelib ulgurmagani va mavjud bo'lmagan muammolar bugunga ta'sir qilmasin. Baxt va baxtsizlik orasida hissiyotlar bir olam, oq va qoradan tashqari ham ranglar bisyor.

JAVOHIR NE'MATOV,
O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti
"Xalqaro jurnalistika"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

“Front ortidagi yosh askarlar”

1941-yilning 22-iyun tongi o'zbek xonadonlariga ham sovuq xabar bilan kirdi. Radio karnayidan yangrayotgan Levitaning ovozi tinchlik tugaganini e'lon qildi. Fashistlar Germaniyasi “Barbarossa” rejasi asosida ittifoq chegaralarini yorib o'tib, misli ko'rilmagan shiddat bilan ichkariga bostirib kirdi. Bir necha oy ichida dushman Moskva ostonasiga – Ximkigacha yetib keldi, Leningradni qamal halqasiga oldi. G'arbdagi zavodlar shoshilinch ravishda Sharqqa, jumladan O'zbekistonga ko'chirila boshlandi.


Toshkent va uning atrofidagi qishloqlar bir zunda ulkan ustaxonaga aylandi. Frontdan minglab kilometr uzoqlikda bo'lsa-da, bu yerda “Ikkinchi front” ochilgan edi.

1943-yilning qahraton qishi. Stalingrad ostonasidagi qonli janglar o'z cho'qqisiga chiqqan, dushman Volga bo'yida jon talvasasida urishayotgan kunlar. 13 yoshli Salim uchun bolalik allaqachon tugagan edi. Uning otasi frontda, onasi esa zavodda smenada. Salimning vazifasi – quyuv sexidan chiqqan issiq metall parchalarini bekatga yetkazish edi. Uning ortida og'ir, yog'och va po'latdan yasalgan qo'lbola vagoncha turardi. Bu vagonchani uzun va mustahkam temir tutqichi bo'lib, Salim bor vujudi bilan o'sha tutqichga tayanar edi. Arqon yelkani kesib yuborishi, uzilishi mumkin edi, ammo temir tutqich ishonchli edi. Salim uni

mahkam siqib ushlaganida, kaftlaridagi qavarchiqlar og'riqni sezmaslikka harakat qilardi. Har bir qadamda temir g'il-diraklarning muzlagan yerda g'ichirlashi go'yo frontdagi o'q ovozlari aks-sado bergandek bo'lardi.

Salim uchun front mana shu temir yo'lardan tinmasdan mehnat qilsak, biz albatta fashistlar ustidan g'alaba qozonishimizga ishonardi va xuddi o'zini bu vagon oldida askar deb his qilardi.

Yo'l chetidagi qumloqda besh yashar ukasi Erkin o'tirardi. Uning qo'lida ipga bog'langan mitti, yog'ochdan yasalgan o'yinchoq vagoncha bor edi. Erkin hali dushmanni “Tigr” tanklari naqadar dahshatli ekanini, fashistlar bosib olgan yerlarda qanday zulm o'tkazayotganini tushunmasdi. U shunchaki akasiga taqlid qilar, o'zining mitti vagonini qum ustida sudrab, beg'ubor o'yin dunyosida yashardi.



QUVONDIQ YUSUPOV,
“San'at jurnalistikasi”
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Salim bir lahzaga to'xtab, og'ir nafas oldi. Uning yelkalari og'riqdan qaqshab, sovuq havo o'pkasini kuydirardi. U ukasiga va uning o'yinchoqiga qaradi. Ularning orasida bir necha qadam masofa bo'lsa-da, go'yo ikki xil dunyo tutashgan edi: biri urushning achchiq yu-kini yelkasiga olgan mardona yoshlik, ikkinchisi esa hali urush nimaligini bilmagan murg'ak bolalik.

– Aka, sening vagoning juda katta, dedi Erkin hayrat bilan.

– Uning ichida nima bor?

Salim temir tutqichni yanada mahkamroq qisdi.

– Buning ichida g'alaba bor, uka, – dedi u ovozi qat'iy chiqib.

– Sen o'yingni o'yna. Sening vagoning doim yengil bo'lishi uchun, men

mana shu og'irini manzilga yetkazishim kerak.

Salim butun kuchi bilan temir tutqichni itardi. Vagon joyidan jildi. U vagonni emas, u o'z xalqining irodasini, otasining umidini va ukasining tinch kelajagini sudrab borardi. Front ortidagi millionlab bolalar mana shunday temir tutqichlarni qo'ymay ushlaganlari uchun ham, fashizm ustidan qozonilgan g'alaba poydevori mustahkam bo'lgan edi.

Ko'rgazma

Yoshlar tayyorlagan liboslar namoyishi

Xalqaro tasviriy va amaliy san'at festivali doirasida P.Benkov nomli Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi o'quvchilari tomonidan tikilgan o'zbek milliy, dunyo millatlari, zamonaviy hamda tarixiy-teatr liboslarini Badiiy akademiya Markaziy ko'rgazma zalida namoyish etildi.

Yoshlar tomonidan namoyish etilgan har bir libos zamirida o'quvchilarning ijodiy izlanishlari, qo'l mehnati samarasi badiiy adabiyotdagi obrazlarda liboslar yaratib sahnaga namoyish qilish jarayonida o'zining badiiy fikrlari yoritildi.

Liboslar namoyishining oldiga qo'yilgan maqsadi, maktab o'quvchilari tomonidan tikilgan o'zbek milliy, dunyo millatlari, zamonaviy, hamda tarixiy-teatr liboslarini, namoyish etish orqali, tashrif buyuruvchilar, ayniqsa yoshlar e'tiboriga havola etishdan iborat.

Mazkur maktab 1949-yilda Samarqand badiiy o'quv yurti (1918-yilda tashkil etilgan) va Toshkentdagi badiiy texnikumni birlashtirish asosida vujudga kelgan. Qirq sakkiz yil davomida P.P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurti deb yuritilgan. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-mart oyidagi 131-sonli qaroriga binoan, O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etildi. P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurti ushbu sanadan boshlab P.Benkov nomli Respublika rassomlik kolleji deb yuritila boshladi, so'ngra P.P.Benkov nomli Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi deb o'zgartirildi. Hozirgi kunda maktabda o'n ikkita ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Bulardan biri “Tarixiy-teatr liboslari san'ati” rassomidir. “Tarixiy-teatr liboslari san'ati”

kafedrasida pedagog-rassomlar, ikki yuzdan ortiq o'quvchilarga jahon millatlari, zamonaviy va tarixiy-teatr liboslarini kompozitsiyasini tuzish, modellashirishni hamda loyihalashtirishdan saboq berib, tarixiy-teatr libosi rassomi mutaxassislarni tayyorlab kelmoqdalar.

Ushbu namoyishida, tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan har bir libos zamirida, o'quvchilarning ijodiy izlanishlari, qo'l mehnati samarasi, badiiy adabiyotlardagi obrazlarga liboslar yaratib sahnada namoyish qilishlari tufayli mazmunni tushunib idrok etish, o'zbek milliy va dunyo millatlarining boy madaniy merosini chuqur tadqiq etib o'rganishlari va o'z badiiy fikrlarini yoritish kabi maqsadlar yotadi. Maktab o'quvchilari ko'plab Respublika, xalqaro miqyosda o'tkazilib kelinayotgan ko'rik tanlov va ko'rgazmalarda faol ishtirok etib faxrli o'rinlar sohibi bo'lib kelmoqdalar.

Ushbu tadbirda yetmishdan ziyod badiiy-etnografik, tarixiy-teatr liboslari o'quvchi-mualliflar tomonidan namoyish etilib, tashrif buyuruvchilar diqqatiga havola etildi. Namoyish so'ngida Barcha ustozlar ismlari o'qib eshittirildi va sahnaga taklif qilindilar, Badiiy akademiya raisi xalq rassomi Akmal Nuriddinov so'zga chiqib, Benkov maktabi jamoasiga iliq so'zlar aytib o'z takliflarini bildirdilar.

HASAN ABDUNAZAROV



Modadagi yangi burilish nuqtasi

Xalqaro tasviriy va amaliy san'at festivali doirasida O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti talabalarining Paradigma (PARADIGMA) deb nomlangan “fashion-namoyishi” bo'lib o'tdi. Paradigma modadagi yangi burilishga intilish. Bu namoyish o'zgaruvchan dunyo sharoitida modadagi transformatsiyani tadqiq qiluvchi yosh dizaynerlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Ko'rgazma doirasida modalardagi o'ziga xoslik va madaniy qadriyatlar, an'analar va texnologiyalarning o'zaro ta'siri barqaror dizayn shaklida namoyish etildi.

Tadbirda O'zbekiston Badiiy akademiya raisi Akmal Nuriddinov Badiiy ijodkorlar uyushmasi raisi Ibrohim Valixojayev so'zga chiqdi. Davra suhbatlarida ta'kidlanganidek, mahalliy kontekstni zamonaviy dizaynga singdirishga alohida e'tibor qaratilib, an'anaviy matolar va naqshlar raqamli va konseptual yondashuvlar orqali yangicha talqin qilinmoqda.

Toshkent Kimyo Xalqaro universitetining “Paradigma” ko'rgazmasi madaniy yangi ma'nolarni izlash uchun festivalda 120 dan ortiq chiqishlar tadbirga kelgan turli kasb egalari ayniqsa yoshlarda katta taassurot qoldirdi.